



## KORXONANI SAMARALI BOSHQARISHDA MOLIVAVIY DIREKTORNING STRATEGIK ROLI VA VAZIFALARI

**Bo'tabayev Mexriddin Shaxobiddinovich**

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi.

ORCID: 0009-0002-4878-330X

**G'aniyev Bexruz Ixtiyor o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti.

ORCID: 0009-0000-2380-6080

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15593636>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2025 yil

Ma'qullandi: 28-May 2025 yil

Nashr qilindi: 31-May 2025 yil

### KEYWORDS

Moliyaviy direktor, korxonada boshqaruvi, moliyaviy boshqaruv, strategik qarorlar, moliyaviy rejalashtirish, risklarni boshqarish, budjetlashtirish, investitsion tahlil, korxonada samaradorligi, moliyaviy barqarorlik.

### ABSTRACT

Zamonaviy korxonada faoliyatini samarali tashkil etish va uni raqobatbardosh holda rivojlantirish uchun puxta va strategik boshqaruv tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tizimda moliyaviy boshqaruv markaziy o'rinni egallaydi, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, risklarni tahlil qilish va korxonaning barqaror o'sishini ta'minlash aynan shu funksional bo'lim zimmasiga yuklatiladi. Ayniqsa, moliyaviy direktorning roli nafaqat kundalik moliyaviy operatsiyalarni nazorat qilish, balki korxonaning umumiy rivojlanish strategiyasini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Moliyaviy direktor — bu faqat buxgalter emas, balki yuqori darajadagi menejer bo'lib, u qaror qabul qilishda asosiy rol o'ynaydi. U korxonada faoliyatining har bir moliyaviy ko'rsatkichini tahlil qiladi, resurslardan optimal foydalanishni ta'minlaydi va rahbariyatga moliyaviy jihatdan asosli takliflar kiritadi. Aynan shu sababli, korxonada boshqarish tizimida moliyaviy direktorning o'rni va funksional vazifalarini chuqur o'rganish bugungi kundagi dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada moliyaviy direktorning korxonada boshqaruvidagi roli yoritilib, uning funksiyalari, qaror qabul qilishdagi ishtiroki hamda strategik rivojlanishga qo'shayotgan hissasi tahlil qilinadi.

### Usullar (Methods)

Ushbu tadqiqotda sifatli (qualitative) tahliliy yondashuv asosida ilmiy va amaliy manbalar tahlil qilindi. Maqolada mavzusi doirasida moliyaviy boshqaruv va strategik menejment sohasidagi ilmiy adabiyotlar, korxonada boshqaruvi bo'yicha nashr etilgan maqolalar, normativ hujjatlar va xalqaro tajribalar o'rganildi. Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

Moliyaviy direktor faoliyati, uning funksiyalari va boshqaruv tizimidagi o'rni bo'yicha mavjud ilmiy maqola, darslik va amaliy qo'llanmalar tahlil qilindi.

Shuningdek, Tadqiqotning metodologik asosini adabiyot tahlili usuli tashkil etdi. Ushbu usul yordamida moliyaviy boshqaruv, korxonalar menejmenti, strategik rejalashtirish va moliyaviy direktor faoliyatiga oid ilmiy va amaliy manbalar chuqur o'rganildi. Jumladan, xalqaro moliyaviy boshqaruv nazariyasi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari, moliyaviy menejmentga oid darsliklar, ilmiy maqolalar hamda xalqaro tajriba va tavsiyalardan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili orqali moliyaviy direktor lavozimining shakllanishi, uning zamonaviy korxonalar boshqaruvidagi o'rni va funksional vazifalari aniqlashtirildi. Shuningdek, moliyaviy direktor ishtirokidagi strategik va operativ qarorlarning korxonalar samaradorligiga ta'siri haqida nazariy qarashlar tizimlashtirildi. Olingan nazariy ma'lumotlar asosida maqolada moliyaviy direktorning boshqaruvdagi roli tahliliy yondashuv asosida yoritildi.

O'zbekiston va xorijiy davlatlardagi korxonalar moliyaviy direktorlarning faoliyati qiyosiy jihatdan tahlil qilindi.

Korxonalar boshqaruvi jarayonida moliyaviy direktor ishtirok etadigan bo'limlar o'zaro bog'liqlikda o'rganildi.

Ayrim yirik ishlab chiqarish korxonalarining tashkiliy tuzilmasi, moliyaviy boshqaruv amaliyoti va qaror qabul qilishdagi moliyaviy direktor ishtiroki bo'yicha kuzatuvlar olib borildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar asosida moliyaviy direktorning zamonaviy korxonalar boshqaruvidagi roli, funksiyalari va strategik ahamiyati haqida asosli xulosalar chiqarildi.

### **Natijalar (Results)**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, korxonalar boshqaruv tizimida moliyaviy direktorning o'rni nafaqat moliyaviy intizomni ta'minlashda, balki strategik qarorlarni shakllantirishda ham beqiyos ahamiyatga ega. Adabiyot tahlili va amaliy kuzatuvlar asosida quyidagi asosiy jihatlar aniqlangan:

**Moliyaviy direktorning ko'p funksiyali roli.** Moliyaviy direktor faqatgina moliyaviy hisobotlarni tayyorlovchi emas, balki korxonaning umumiy iqtisodiy yo'nalishini belgilovchi strategik rahbar sifatida namoyon bo'ladi. U budjetlashtirish, moliyaviy prognozlash, soliqqa oid rejalarni tuzish va xarajatlarni optimallashtirishda faol ishtirok etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy direktor korxonada keng ko'lamli funksiyalarni bajaradi. Uning vazifalari faqat buxgalteriya hisobotlarini yuritish bilan cheklanmaydi. U korxonaning moliyaviy siyosatini ishlab chiqadi, xarajatlarni rejalashtiradi, daromadlar prognozini tuzadi, soliqqa oid strategiyalarni ishlab chiqadi, shuningdek, kredit olish, qarzlarni boshqarish va likvidlikni ta'minlashda faol ishtirok etadi. Bu jihatlar uning boshqaruv tizimida universal figura sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

**Struktura va qaror qabul qilishdagi ishtiroki.** Korxonada moliyaviy direktor rahbariyat tarkibiga kirib, yirik moliyaviy va investitsion qarorlarni qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy tahlillar orqali u rahbariyatga asosli tavsiyalar beradi. Moliyaviy direktor yuqori darajadagi menejment a'zosi sifatida strategik qarorlar qabul qilishda faol qatnashadi. U moliyaviy tahlillar asosida mahsulot narxlarini, investitsion yo'nalishlar, xarajatlarni qisqartirish, yangi loyihalarni moliyalashtirish kabi masalalarda rahbariyatga asosli ma'lumotlar va takliflar beradi. Korxonalar boshqaruvining markaziy qarorlariga moliyaviy jihatdan asosli yondashuv aynan uning mas'uliyatiga kiradi.

**Risklarni boshqarishdagi faoliyat.** Moliyaviy direktor bozor sharoitlari, valyuta kurslari, soliq siyosati va global iqtisodiy omillar ta'sirini tahlil qilib, korxonaning moliyaviy barqarorligini saqlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi. Moliyaviy risklar — bu korxonada daromadiga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan noaniqlik va tahdidlar to'plamidir. Moliyaviy direktor ushbu risklarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqadi. Bu jumladan: valyuta risklari, foiz stavkalari, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar va bozor noturg'unligi kabi xavflarni o'z ichiga oladi. Risklarni boshqarish orqali moliyaviy barqarorlik va investorlar ishonchi oshadi.

**Moliyaviy axborotning strategik vazifasi.** Moliyaviy direktor tomonidan taqdim etiladigan axborotlar boshqaruv qarorlarining aniqligi, o'z vaqtida qabul qilinishi va samaradorligini ta'minlaydi. Bu esa korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy direktor tomonidan ishlab chiqilgan tahliliy hisobotlar korxonada rahbariyatining to'g'ri va tezkor qaror qabul qilishiga xizmat qiladi. Bu hisobotlar budjetdan chetga chiqishlar, rentabellik dinamikasi, investitsiya samaradorligi, foyda marjalari va boshqa ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Axborotlarning aniqligi va tahliliy chuqurligi strategik rejalashtirishni ishonchli asos bilan ta'minlaydi.

**Korxonada samaradorligiga ta'siri.** Tahlillar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy direktori faoliyati samarali tashkil etilgan korxonalarda daromadlilik, rentabellik, investitsion jozibadorlik ko'rsatkichlari yuqoriroq bo'ladi. Bu esa moliyaviy boshqaruv sifatining umumiy faoliyat natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Yaxshi tashkil etilgan moliyaviy boshqaruv korxonada samaradorligini oshiradi. Moliyaviy direktor tomonidan o'tkaziladigan tahlillar asosida resurslardan oqilona foydalanish, ortiqcha xarajatlarni qisqartirish, foydani ko'paytirish va investitsion salohiyatni oshirish mumkin bo'ladi. Natijada korxonada iqtisodiy barqarorlikka erishadi va raqobatbardoshligini saqlab qoladi. Bu xulosa korxonalarining real amaliy natijalari asosida asoslab berilgan.

### **Muhokama (Discussion)**

Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, moliyaviy direktor zamonaviy korxonada boshqaruv tizimining muhim va ajralmas bo'g'inidir. U faqat hisobot tuzuvchi texnik mutaxassis emas, balki strategik fikrlovchi, resurslarni boshqaruvchi va risklarni oldindan ko'ra oluvchi yuqori darajadagi menejer sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, noaniqlik sharoitida faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun moliyaviy direktorning analitik qobiliyatlari va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi tajribasi hayotiy ahamiyatga ega.

Moliyaviy direktorlarning qaror qabul qilishdagi ishtiroki ularning boshqaruv darajasidagi vakolatlariga ham bog'liq. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda moliyaviy direktorlar (CFO – Chief Financial Officer) boshqaruv kengashlarining doimiy a'zosi sifatida ishtirok etadi va korxonaning barcha asosiy qarorlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistondagi ayrim yirik korxonalarda ham bu model asta-sekin shakllanmoqda, biroq ko'plab holatlarda moliyaviy direktorlarning strategik qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki cheklangan bo'lib qolmoqda.

Moliyaviy direktor faoliyatining samaradorligi bevosita quyidagi omillarga bog'liq: korxonada ichki boshqaruv madaniyati; moliyaviy axborot tizimlarining mavjudligi va zamonaviyligi; moliyaviy savodxonlik darajasi; yuqori rahbariyatning moliyaviy tahlillarga tayanuvchi yondashuvi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, moliyaviy direktor tomonidan ishlab chiqilgan tahliliy hisobotlar va tavsiyalar asosida qaror qabul qilingan korxonalarda rentabellik darajasi va resurslardan foydalanish samaradorligi yuqoriroq bo'ladi.

Shu bois, korxonalarda moliyaviy boshqaruvni kuchaytirish, moliyaviy direktorlarning strategik darajadagi vakolatlarni kengaytirish, ularning kasbiy malakasini oshirish va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda qarorlarni asoslash amaliyoti keng joriy etilishi dolzarb vazifadir.

### **Xulosa (Conclusion)**

Tadqiqot natijalari asosida quyidagilarni xulosa qilish mumkin: zamonaviy korxonalarni samarali boshqarishda moliyaviy direktorning o'рни va roli tobora ortib bormoqda. U nafaqat moliyaviy hisobotlar bilan ishlovchi mutaxassis, balki strategik qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etuvchi va korxonada barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi rahbar sifatida shakllanmoqda.

Moliyaviy direktor quyidagi yo'nalishlarda boshqaruv samaradorligini oshiradi:

- resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi;
- moliyaviy risklarni aniqlaydi va kamaytiradi;
- budjetlashtirish va investitsion tahlilni amalga oshiradi;
- strategik rejalashtirishda rahbariyatga asosli tavsiyalar beradi;
- moliyaviy axborotlar orqali boshqaruv qarorlarini puxta asoslaydi.

Korxonada moliyaviy direktorning vakolatlari va malakasi qanchalik yuqori bo'lsa, korxonaning moliyaviy barqarorligi, raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligi shunchalik mustahkam bo'ladi.

Shu bois, korxonada boshqaruv tizimida moliyaviy direktor lavozimining funksiyalarini kengaytirish, ularning strategik qarorlar jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish va zamonaviy moliyaviy tahlil vositalaridan foydalana olish qobiliyatini oshirish muhim ilmiy-amaliy vazifadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Harold Kerzner. Project Management: a systems approach to planning, scheduling, and Controlling (10th ed.). ISBN 978-0-470-27870-3. USA 2009.
2. Lech Kurowski, David Sussman. Investment Project Design: A Guide to Financial and Economic Analysis with Constraints. ISBN 978-0-470-91389-5. USA April 2011. 480 pages.
3. Abdullayeva, M. (2021). Moliyaviy menejment: nazariya va amaliyot. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
4. Karimov, B. (2020). "Korxonada boshqaruv tizimida moliyaviy boshqaruvning o'рни". Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №6, 43-48.
5. Ross, S., Westerfield, R., Jordan, B. (2019). Corporate Finance (12th ed.). New York: McGraw-Hill Education.
6. Brigham, E.F., & Ehrhardt, M.C. (2021). Financial Management: Theory and Practice (16th ed.). Boston: Cengage Learning.